

Mavzu : Bolalar adabiyotida xalq og`zaki ijodi. Maqol,
topishmoqlar va tez aytishlar.

Reja:

1. Bolalar folklori.

2. Maqol haqida nazariy ma'lumotlar.
3. Tez aytish.
4. Xulosa.

Muallif: Muqaddamxon Ehsonova

Bolalar folklori ham kattalarniki kabi xilma- xil adabiy tur va janrlarda namoyon bo`ladi.

Barcha zamonlarning o`z ijodkorlari xalqning urf- odatlari, maqsad- intilishlari, orzu- armonlarini ifodalab keladi. Qolaversa, bolalarning ham ma'naviy- axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajaradi. Bu maqsad qo`shiq, doston, ertak, afsona va rivoyat, topishmoq, maqol kabi shakllar orqali o`z aksini topadi.

Xalq og`zaki ijodi asarlari orqali ham
ajdodlari zakovati va jasoratlaridan saboq oladi,
buyuk ajdodlari va ularning yashash tarzi bilan
tanishadi. Folklorda xalq zakovati, iste`dodi va
til boyligi namoyon bo`ladi. Bu xususiyat
ayniqsa maqol va topishmoqlarda ko`rinadi.



Maqol arabcha “ qavolla ” , “ qavlun ”
so`zlaridan olingan bo`lib, so`z, aytmoq,
so`zlamok ma`nolarini anglatadi.

Maqol – xalqning hayotiy tajribalari asosida
yuzaga kelgan dono, purhikmat so`zlar. El orasida
naql so`zi ham maqol ma`nosida qo`llaniladi



Ijtimoiy- siyosiy, ma'naviy- madaniy, axloqiy- falsafiy qarashlarni o`z ichiga oladi. Ixcham, lo`nda va obrazli ifodalanadi. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi bilan hayotiy tajribadan xulosa sifatida yuzaga keladi. Har bir maqolda o`sha xalqning qalbi, milliy saviyasi ifodalanadi.



Maqollar ham she'riy, ham nasriy shaklga ega bo`lganligi uchun ham maxsus tur deb ataladi.

Maqollar ixcham shaklga ega bo`lsa- da, katta hayotiy muammolarni o`z ichiga oladi.

O`zbek xalq maqollarini yozib olish XI asr, Mahmud Qoshg`ariydan boshlangan.

XVIII – XIX asrlarda yashab o`tgan M. Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqol ishlatgan.



Maqollardan namunalar:

- Jahl— dushman,
Aql — do‘st.

Oy tunda kerak,
Aql kunda kerak.

- Belgi bo‘lsa, yo‘ldan adashmas,
Aql bo‘lsa, so‘zdan adashmas.

Elga qo‘shilsang, el bo‘lasan,
Eldan ajralsang, yer bo‘lasan.

- Chinordek bo‘ying bo‘lguncha,
Tumordek aqling bo‘lsin.

Hunari yo‘q kishining,
Mazasi yo‘q ishining



Bulbul chamannu sevar,
Odam vattanni.

Do`st so`zini tashlama,
Tashlab boshing qashlama.

Ilm aql chirog`i.

Bilagi zo`r birni yiqar,
Bilimi zo`r mingni yiqar.

Daryo suvuni bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.



Bolalar xalq og`zaki ijodida maqol yetakchi o`rinda turadi, chunki maqol xalq yaratgan g`oyat chuqur va tugal ma`noli gaplar. Maqolda xalqning, bir necha avlodning aql- u farosati hamda turmush tajribasinng yakuni, shuningdek donishmandligi beriladi.



Balki shu sababli “ Otalar so`zi ” nomi bilan ham yurutiladi. Maqol janriga nafaqat yozuvchilar balki katta yoshdagi insonlar ham qayta- qayta murojat qiladilar.


Maqol yoshlarni ilm- u hunarli bo`lishga, mehnatkashlikka, vatanparvarlikka umuman olganda barcha insoniy fazilatlarga o`rgatadi.

Dono xalqimiz bejizga: “ So`z ko`rki- maqol ” deb aytmagan.



Topishmoqlar xalq og`zaki ijodining
eng qadimgi va eng ommaviy janri.

Jahondagi barcha xalqlar folklorida
uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti,
turmush darajasi, urf- odatlari ma`lum
darajada o`z aksini topadi.



Topishmoqda yechilishi mumkin bo`lgan so`roq ma`juziy ma`noda ifodalanib uning ma`nosi yashirin bo`ladi. Odamlar, ayniqsa bolalar, topishmoqda yashiringan narsani topishga, jumboqni bilishga

Topishmoqlarda narsa yoki hodisaga o`xshat o`zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantirilau.

Topishmoqlar ba`zan nasriy, ko`pincha, she`riy shaklda bo`ladi.




Topishmoqlar bolalarning soʻz boyligini oshirish hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatlarini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi.

Topishmoqlardan doston va ertaklarda keng foydalaniladi. Topishmoq xalq ichida topmacha, jumboq, matal nomi bilan ham yuritilgan.



Topishmoqlar mavzusi tabiat va kundalik hayotda, ro`zg`orda, uchrab turadigan aniq hodisa yoki narsa yoxud boshqa tushuncha haqida bo`ladi.



Masalan: Dum- dumaloq jajji oy, chaqi,
yesang g`ij- g`ij moy. (Yong`oq)

Qo`li yo`q, oyog`i yo`q uy poylar. (Qulf)


Ko`pincha topishmoqlar mubolag`a yo`li bilan yaratiladi, masalan:
Bir chuqurda, ming chuqur (angishvona)

O`zi bir qarich, soqoli ming qarich (igna- ip)

Muallifga ega bo`lgan she`riy topishmoqlar chiston, shuningdek lug`z deb ham yuritiladi. Chiston forscha so`z bo`lib “ chist ” – nima , “ on ” – u ma`nosini beradi.

Chiston alohida she`riy janr ham hisoblanadi. Bu janrda dastlab Navoiy , keyinchalik Uvaysiy samarali ijod qilgan.

Masalan: Navoiyning “ Qalam ” , “ Tanga ” , “ Yumurtqa ” ,
Uvaysiyning “ Anor ” , “ Kun va tun ” chistonlari mashhur.



ertaklar.uz



Odam, uning a`zolari va hislatlari haqida
TOPISHMOQLAR

Topishmoqlardan namunalar:

- Lenta kabi cho‘zilib,
Yurtni yurtga ulaydi.

Do‘stni do‘stga uchratib,
Qalbgga sevinch qalaydi.

(Yo‘l)

- Qo‘shaloq tovoq,
Ichi to‘la yog‘.

(Yong‘oq)




Bulut desang, bulutmas,
Yerdan ko‘kka suzadi.

Ko‘zga, burunga kirsa,
Asabingni buzadi.

(Tutun)

Keragida suvga otasan,
Qimirlashin poylab yotasan.

(Qarmoq)



Talabalar uchun mantiqiy topishmoqlar:

1. Tuyaqush o`zini qushman deb ayta oladimi?
2. Juda och qoringa nechta tuxum yeyish mumkin?
3. Dunyodagi har bir narsa uchun nima kerak?
4. Choynak bilan qopqog`i uchun bola 11 so`z to`ladi, choynakning narxi qopqog`iga qaraganda 10 so`m qimmat. Qopqog`ning narxi qancha? $50 \text{ tiyn} + 10 \text{ so`m} = \text{choynakning narxi}$
5. Qaysi odam oldida podshoh ham bosh kiyimini yechadi?



Ayniqsa, bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi bu murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan adashib ketishi tinglovchilarning beozor kulgusiga sabab bo'ladi. O'zbek tilida bu iboralarning tez aytish deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan.

Tez aytish — o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan jummlalar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi. Mas., Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida besh ming mis barkash.

Tez aytishda har bir tovush o‘z o‘rnida to‘g‘ri, ravon talaffuz etilishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan hisoblanadi. O‘tmishda katta yoshdagi odamlar ham o‘tirishlarda, to‘ylarda Tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so‘z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo‘lishiga xizmat qiladi

- Ahmad aka Rahmat akani koʻrdi.
- Ali, Vali, Gʻani, Sayfi, Said qani?
- Asad asil asal saqlaydi.
- Bashar hasharga shoshar, Yashnar hasharda Bashardan oshar.
- Bedarak bedana bedazorda bedor boʻldi.
- Bir burun koʻrdim burunnan burun, eshikdan chiqdi burunnan burun
- Bir juft choʻp koʻpmi, qoʻsh juft choʻp koʻpmi?

- Boqi boqqa, Soqi toqqa bordi.
- Boqi botir buzoq boqar.
- Boqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.
- Boshqotirma Boltavoyning boshini qotirdi.
- Bu bo‘ri bo‘z bo‘rimas chiyabo‘ri.
- Bulturgi burgutni bugun Urgutda ko‘rdim.
- Chinoz jiydazori chindan Chilonzor chinorzoridan katta.
- Chovli - simdan, chovgum - misdan.

Xulosa qilib aytamizki
topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar

bolalarning fikr doirasini
kengaytirishda, aql-idroklarini
rivojlantirishda, kuzatuvchanlik
hislarini, nafosat tuyg`ularini
o`stirishda katta ahamiyatga ega.



Ular o`ziga xos mazmunni va maqsadni ifodalash shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikki o`rgatadi ularning qobiliyatlarini o`stiradi.

